O’ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

QOZOG’ISTON RESPUBLIKASINING JANUBIY-QOZOG’ISTON UNIVERSITETI

QOZOG’ISTON RESPUBLIKASI YEVROOSIYO MILLIY UNIVERSITETI

# “TURKIY TILLI XALQLAR FALSAFASI, MADANIYATI: TARIX, BUGUN VA KELAJAK”

# "ФИЛОСОФИЯ, КУЛЬТУРА ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ НАРОДОВ: ИСТОРИЯ, НАСТОЯЩЕЕ И БУДУЩЕЕ"

# "PHILOSOPHY, CULTURE OF THE TURKIC-SPEAKING PEOPLES: HISTORY, PRESENT AND FUTURE

mavzusidagi xalqaro online

SIMPOZIUM

materiallari

ТОШКЕНТ – 2020

Ma’sul muharrirlar:

*O’ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI, PROREKTORI*

Filologoya fanlari doktori, professor Zohidjon Islamov

*QOZOG’ISTON RESPUBLIKASINING JANUBIY-QOZOG’ISTON UNIVERSITETI DEKANI*

Yuridik fanlari nomzodi, dotsent Kayrat Bitemirov

*QOZOG’ISTON RESPUBLIKASI YEVROOSIYO MILLIY UNIVERSITETI KAFEDRA MUDIRI*

Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PhD) Ospanova Aygerim Nuralievna

*Tahrir ha’ati:*

Y.f.n., dots. H.N.Tuychieva, f.f.d., prof. M.M.Kaxxarova, f.f.n.(PhD) M.I.Xujaev, t.f.n., dots. M.Jumabekov, f.f.n., dots. M.K. Rakhimshikova, M.Xavazmetova

*Tashkilotchilar:*

Y.f.n., dots. H.N.Tuychieva, f.f.d., prof. M.M.Kaxxarova, f.f.n.(PhD) M.I.Xujaev, t.f.n., dots. M.Jumabekov, f.f.n., dots. M.K. Rakhimshikova, s.f.n. (PhD)A.N. Ospanova, D.Xavazmetova

*O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi Ilmiy va o’quv-uslubiy Kengashining 2020 yil 22 dekabrdagi 9-sonli majlisida nashrga tavsiya etilgan.*

14. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр.–Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1989. –Б. 352.

15. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб.–Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1983. –Б. 112.

16. Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам.–Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1967. 14-жилд. –Б. 183-238.

17. Алишер Навоий. Муншаот.–Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти,1966. 13-жилд. –Б. 85-156.

18. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. –Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1983. –Б. 11.

19. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. –Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1983. –Б. 13.

20. Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи Муҳсиний. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат миллий нашриёти. 2011. –Б. 160.

## KONFUTSIYNING MA'NAVIY YANGILANISHLAR TO'G'RISIDAGI QARASHLARI

**Turdiyev Bexruz Sobirovich**

Buxoro davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi izlanuvchisi

**Annotatsiya:**

Mazkur maqola Konfutsiyning ma'naviy qarash va pand-nasihatlari mavzusiga bag'ishlanib, unda faylasuf tomonidan ilgari surilgan g'oyalarning jahon xalqlari ma'naviy-axloqiy yuksalishidagi roli tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** donishmand, falsafiy meros, tarbiya, ta'limot, adolat, ota-ona, axloqiy donolik, ideal inson, insoniylik, ezgulik, ajdod, urf-odat.

**Annotation:**

This article is devoted to the spiritual views and teachings of Confucius, and analyzes the role of the ideas put forward by the philosopher in the spiritual and moral development of the peoples of the world.

**Keywords:** wisdom, philosophical heritage, upbringing, doctrine, Justice, parent, moral wisdom, ideal man, humanity, goodness, ancestry, tradition.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы идеи, духовные воззрения и наставления великого философа, Конфуция, повлиявшие на духовно- нравственное развитие народов мира.

**Ключевые слова:** мудрец, философское наследие, воспитание, учение, справедливость, родитель, нравственная мудрость, идеальный человек, человечность, доброта, предок, традиция.

Jamiyat taraqqiyotida ma'naviy yangilanishlar to'g'risidagi turli g'oya va qarashlarni chuqur va atroflicha tahlil etmay, ulardan tegishlicha xulosa va saboq chiqarmay, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari degan eng ulug' maqsad sari bora olmaymiz. Shu bois, jamiyatning ma'naviy yuksalishi haqidagi turli davrdagi buyuk mutafakkir, alloma va jamoat arboblarining ilmiy-falsafiy qarashlarini chuqur tadqiq etsak, jahonning eng rivojlangan demokratik davlatlarining yuksalish tarixini o'rgansak, mamlakatimizni jahon tendensiyalariga mos ravishda yuksaltirishimiz, xalqimizni davlat va jamiyatning milliy yuksalishiga faol ishtirokiga safarbar eta olamiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida e'tirof etganidek: "Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga

oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz"[1].

Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy merosi umumjahon falsafasi tarixida o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. Ushbu xalqlar falsafasi Hindiston, Xitoy, Misr, Yunoniston falsafasi kabi qadimiyligi bilan emas, balki o'z taraqqiyoti yo'lida jahon xalqlari ma'naviyatiga kuchli ta'sir etgan falsafiy-diniy g'oyalar evolyusiyasidan iboratligi bilan ajralib turadi.

Qadimgi Xitoydagi ijtimoiy-falsafiy fikr tarixida Konfutsiyning (551-479) qarashlari alohida o'rin tutadi. Faylasufning falsafiy o'gitlari butun jahon xalqlari ma'naviyatining ajralmas sarchmashmasidir. Uning falsafiy qarashlarida har bir jamiyat a'zosining ma'naviy yangilanishga daxldor ekanligi, insonlarning hayoti taqdirga bog'liq ekanligi, inson ezgu maqsadlar sari intilsa unga albatta boylik va ulug'lik nasib etishini ilgari suradi.

Konfutsiyning ijtimoiy falsafasi o'z-o'zini tarbiyalashda asosan "ren" yoki "boshqalarni sevish" tamoyillariga asoslangan edi. U renni "O'zingga ravo ko'rmagan ishni boshqalarga ham ravo ko'rma" degan oltin qoidadan foydalanib amalga oshirish mumkinligini e'tirof etadi.

Konfutsiy ta'limotida inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar tizimiga alohida to'xtalib, ularni olti guruhga ajratadi. Bu munosabatlar ijtimoiy hayotda qilinadigan ishlar hisoblanib, ularning hech biri o'tkinchi emasligi uqtiriladi:

***Birinchidan,*** ota va o'g'il o'rtasidagi munosabat. Bu munosabat mehr va hurmat asosida tashkil topishi lozim;

***Ikkinchidan,*** aka va uka o'rtasidagi munosabat. Bu o'zaro birodarlik va mehr hissi asosida bo'lishi kerak;

***Uchinchidan,*** er va xotin o'rtasidagi munosabat. Faylasuf er-xotin o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro tushunish va bir-birini tinglash madaniyati bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tadi.

***To'rtinchidan,*** katta do'st va kichik do'st o'rtasidagi munosabatlar tizimidan iborat bo'lib, ular o'zaro ishonch, e'tibor va hurmatga tayanishi kerakligi uqtiriladi.

***Beshinchidan,*** hukmdor va fuqarolar o'rtasidagi munosabat. Bu munosabat hukmdorning fuqarolarga mehribonligi va fuqarolarning hukmdorga sodiqligida aks etishi lozim deb ta'kidlanadi.

***Oltinchidan,***yoshni hurmat qilish zarur, zero, yosh har qanday narsaning, shaxsiy hayotning asosi.

Konfutsiy ta'limotida Jen va Li egizak tushunchalar hisoblanib, ular ushbu ta'limotning asosini tashkil etadi.

**Jen (Wren) -** bu inson hayotining qadr-qimmati, boshqalarga nisbatan insoniylik hissi va o'zini o'zini hurmat qilish fazilatidir. Bunday tuyg'u bitta millat yoki irqga emas, balki butun insoniyatga tegishli va barcha insoniy munosabatlarning asosidir. Konfutsiyning birinchi tamoyili - bu jenga muvofiq harakat qilish: bu inson harakatlarining asosiy qo'llanmasidir.

**Li (lee) -** daromad, foyda, tartib, egalik tamoyili, inson harakatlarining aniq ko'rsatmasidir. Li ikkita asosiy ma'noda qo'llaniladi: birinchidan, insoniy munosabatlarning aniq qo'llanmasi yoki chinakam jenni o'z ichiga olgan to'g'ri xatti-harakatlar qoidalari va ikkinchidan esa, umumiy ijtimoiy tartib yoki hayotning umumiy tartibidir.

**Yi (yee) –** adolat, yaxshilik qilish haqidagi axloqiy qarashlar tizimi hisoblanib, insonning nima to'g'ri va nima yaxshi ekanligini bilish qobiliyatidir. Shuningdek, u to'g'ri sharoitda nima qilish kerakligini his qilish qobiliyatini ham anglatadi.

**Hsiao (showe)** – bu taqvodorlik va ehtirom fazilatlari. Bunga birinchidan, ota-onalar sazovor, chunki ular sizning hayotingizning asosiy manbaidir. Ular sizning baxtu kamolingiz uchun o'zlarini qurbon qiladilar. Ikkinchidan, yaxshilik qiling va o'z oilangiz nomini taniting, oilangizga sharaf olib keltiring. Uchinchidan, o'zingiz hurmat qiladigan va hayratda qoldiradigan, hayotingizni saqlab qoladigan kishini yoki o'z hayotini siz uchun qurbon qilgan kishini xuddi ota-onangizdek e'zozlang. To'rtinchidan, siz ota-onangizga nafaqat jismoniy yordamni, balki hissiy va ma'naviy boylikni ham berishingiz lozim. Ota-onalar vafot etganlarida, ularning bajarilmagan orzu va maqsadlari bolalarning maqsadlari bo'lishi kerakligi uqtiriladi.

**Chih (chee):** axloqiy donolik. Bu fazilatning manbai yaxshi va yomonni bir-biridan ajrata olishdir. Zotan, bu tamoyil mazmuniga ko'ra, insonlar ezgu fazilatlar asosida tug'ilishiga ishonadi.

**Chun-tzu (choon dzuh)** - ideal inson. Bu quyidagi beshta fazilatdan tarkib topgan deb aytilgan: 1) mehribonlik, 2) rostgo'ylik, 3) odob, 4) donolik va 5) samimiylik.

**Te (kun)** - erkaklar boshqaradigan kuch, ya'ni axloqiy namunaning kuchi (boshqaruvning butun mahorati halollik san'atidan iborat). U birinchidan, nufuz -mamlakatni boshqarish xizmatida qo'llaniladi; ikkinchidan, hukumat ya'ni, iqtisodiy to'kinchilik, harbiy yetuklik va xalq ishonchini saqlab qolishidan iborat[4].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Konfutsiy ta'limotining ijtimoiy-axloqiy asosini, avvalo, insoniylik va uni ulug'lash yotibdi.

Agar kishi hurmat-e'tibor ko'rsatsa, undan hech kim qusur qidirmaydi, nafratlanmaydi, agar u xushmuomalali bo'lsa, boshqalar uni qo'llab-quvvatlaydi, o'ziga raqib, dushman deb bilmaydi. Agar kishi to'g'ri bo'lsa, boshqalar unga ishonadi, uni o'ziga yaqin tutadi. Agar u ziyrak

bo'lsa, muvaffaqiyatlarga erishadi, boshqalar uning muvaffaqiyatlariga g'ov bo'laolmaydi. Mabodo kishi ezgu niyatli va amalli bo'lsa, o'zi ham tinch, osoyishta, yonidagilar ham ezgulikka intilib yashaydi [2. –B.20.].

Zero, mutafakkir ta'limotidagi insonparvarlik g'oyalarida insonga hurmat-e'tibor, xushmuomalalik, to'g'rilik, ziyraklik, aziyat tortib muvaffaqiyatga erishish, boshqalarga yordam berish, axloqli bo'lish, yaqinlarni unutmaslik, urf-odatlarga rioya etish kabi xislatlar mujassamlashgan.

Faylasuf ta'limotidagi ota-onaga mehr-muruvvat ko'rsatish haqidagi qarashlarida ham buyuk insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Konfutsiy fikricha, farzandlar o'z ota-onalariga risoladagidek xizmat qilishlari, ularni oxirgi manziliga eltishlari va ularga atab qurbonliklar qilishlaridan iborat. Bu qoidalarga ko'ra, odobli farzand umr bo'yi ota-onasining xizmatida bo'lishi, ularga g'amxo'rlik ko'rsatishi, ularning ko'nglini topishga intilishi, parvarish qilishi, salomatligi va manfaati yo'lida hamma narsaga tayyor turishi, har qanday sharoitda ularning hurmatini joyiga qo'yishi shart deb ta'lim beradi. Hatto ular yaramas, jinoyatchi, o'g'ri yoki qotil bo'lganlarida ham, odobli farzand muloyimlik bilan, yalinib-yolvorib bo'lsa ham, ularni yaxshi yo'lga qaytishga undaydi. Umuman olganda, Konfutsiy ta'limotidagi farzandlarning ota-onaga nisbatan izzat-ikrom ko'rsatishi Xitoy davlatining axloq-odob kodeksiga aylangan hamda undagi insoniylik namunalari esa taxsinu taqlidlarga loyiq deb topilgan.

Shuningdek, qadimgi ajdodlarning urf-odatlari, marosimlari, tariqatiga tayangan Konfutsiy o'tganlarning shuhrati ularning avlodlarini yuksaltiradi, jamiyatning haqiqiy negizi, poydevorini yanada mustahkamlash uchun qadimgi urf-odatlar, marosimlar, an'analarni

tiklash va ularga amal qilish zarurligi kerakligini maslahat beradi [3. – B.9.].

Xullas, Konfutsiy tomonidan yaratilgan ta’limotning maqsadga muvofiqligini bugungi kunda mamlakatimizda ham qadimgi urf-odat, an’ana, milliy marosim va bayramlarimizning, ajdodlarimiz tarixiy xotiralarining tiklanishi borasidagi ma’naviy-ma’rifiy islohotlarimizda ko’rishimiz mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. //“Xalq so’zi” gazetasi, 2017 yil 20 sentyabr.

2. Alimasov V. Konfusiylik va Sharq davlatchiligi. –T.: “Falsafa va huquq”, 2006. –B. 56.

3. Konfutsiy. Hikmatlar. –T., “Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti”, 2010. –B.172.

4. Philosophy 312: Oriental Philosophy Main Concepts of Confucianism. // https://philosophy.lander.edu/oriental/main.html

5. Turdiyev B. S. The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal //Scientific Bulletin of Namangan State University. - 2019. - Т. 1. - №. 6. - С. 229-233.

6. Sobirovich T. B. Strategy of Renewal of National Spirituality of Uzbekistan // International Journal on Integrated Education. - 2020. - Т. 3. - №. 8. - С. 122-126.

7. Sobirovich T. B., Murodogli I. S. The strategy for the implementation of the modern governance system in Uzbekistan //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. - 2020. - Т. 10. - №. 5. - С. 741-748.

8. Sobirovich T. B. Strategy of spiritual renewal in Uzbekistan //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. - 2020. - Т. 24. - №. 06.

9. Sobirovich T. B. The criterion of human indicators in development and renewals in Uzbekistan //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR).

10. Sobirovich T. B. O‘‘ zbekiston demokratik jamiyat taraqqiyoti rivojida ma‘‘ naviy yangilanishlar strategiyasining roli //Imom Buxoriy saboqlari. - 2020. - №. 2. - C. 118-121.
12. Turdiev B. S., Yuldashev B. T. THE ISSUE OF AVOIDING CRIMES AMONG YOUNGSTERS IN UZBEKISTAN //Экономика и социум. - 2019. - №. 1-1. - C. 119-122.
13. Turdiyev B. S. SPIRITUAL RENEWAL AND INTERETHNIC RELATIONS IN THE STRATEGY OF ACTIONS //Теория и практика современной науки. - 2018. - №. 3. - C. 85-89.
14. Sobirovich T. B. The development of democratic society and spiritual renewal in the views of Eastern and Western thinkers //INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND REVIEW. - 2020. - Т. 5. - №. 10. - C. 60-65.
15. Turdiyev Б. The development of democratic society and spiritual renewal in the views of eastern and western thinkers //Общество и инновации. - 2020. - Т. 1. - №. 1/s. - C. 710-717.
16. Sobirovich T. B. The development of democratic society and spiritual renewal in the views of Eastern and Western thinkers //INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND REVIEW. - 2020. - Т. 5. - №. 10. - C. 60-65.
17. Sobirovich T. B. The Strategy of Cultural Development in Central Asia During Amir Temur and the Temurids Dynasty //Int. J. Sci. Res. in Multidisciplinary Studies. - 2021. - Т. 2021.
18. Sobirovich T. B. The Strategy of Cultural Development in Central Asia during Amir Temur and Temurids Dynasty Reign //Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research (IIJSR). - 2021. - Т. 5. - №. 1. - C. 18-22.
19. Sobirovich T. B. Strategy of development of pilgrimage tourism in Uzbekistan // MODERNIZATION OF ISLAMIC CULTURE IN BUKHARA AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF SUSTAINABLE TOURISM” International Scientific and Practical Conference, Bukhara. - 2020. - Т. 2. - C. 24.
20. Sobirovich T. B. O ‘zbekistonning ma’naviy yangilanish strategiyasi // Buxoro:“Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti. - 2020. - C. 48.
21. Sobirovich T. B. Evolution of ideas and views on the development of democratic society and spiritual renewals //Scientific Bulletin of Namangan State University. - №. 10. - C. 243-250.

22. Sobirovich T. B. Tourism in Central Asian context //ВЕСТНИК ИНСТИТУТА/ СОКРОВИЩНИЦА НАУКИ. - 2019. - №. 2. - С. 732-733.
23. Sobirovich T. B. The national and universal principles of democracy in the Central Asian context //INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND REVIEW. - 2021. - Т. 6. - №. 1. - С. 30-34.
24. Turdiyev B. S. CULTURAL AND EDUCATIONAL DEVELOPMENT OF SOCIETY IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF WORLD PHILOSOPHERS //Academic research in educational sciences. - 2021. - Т. 2. - №. 4. - С. 443-451.
25. Sobirovich T. B., Sharipovna A. F. NEW UZBEKISTAN-NEW STRATEGY OF ADMINISTRATIVE REFORMS //researchgate. net.
26. Sobirovich T. B. Ma'naviy yangilanishlar strategiyasining hayotbaxsh islohotlari: nazariya va amaliyot, O'zbekiston Milliy axborot agentligi-O'zA Ilm-fan bo'limi (elektron jurnal) //Tashkent, UzA. - С. 1-12.
27. Turdiev B. S., Saidjonova Z. S. ANCIENT AND MODERN BUKHARA // Экономика и социум. - 2019. - №. 1-1. - С. 117-119.
28. Turdiyev Bexruz Sobirovich. Ma'naviy yangilanish: yangi qaror va hayotbaxsh islohotlar strategiyasi. //Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti. Buxoro: 2018. - № 2 (70). -P.208-213.
29. Turdiyev B. THE CONTRIBUTION OF BOBUR AND BOBURI DYNASTY TO THE RENEWAL OF WORLD CIVILIZATION //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2021. - Т. 5. - №. 5.
30Turdiyev B. Behbudi's views on the spiritual renewal of society //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2021. - Т. 5. - №. 5.
31. Turdiyev B. SHARQ VA G 'ARB MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTI MA'NAVIY YANGILANISHLAR MEZONI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2021. - Т. 5. - №. 5.

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | қызметті талдау бойынша кешенді әлеуметтік-педагогикалық ұсынысы | |
| 16. | YULDASHEV F. A. | A brief review of al-Farabi's "great music book" | 150-155 |
| 17. | ЮНУСОВ К. А. | "Ўзбекистонда учинчи ренессанс даври бошланишига инновацион ёндашув | 156-163 |
| 18. | КУЛЖАБАЕВА Л.С.<br>АРЫНГАЗИЕВА Б.Б. | Тюркская культуры в контексте диалога культур | 164-173 |
| 19. | ЭВАТОВ С. | Марказий Осиё тасаввуфида аскетик тафаккур ва альтруизм ғояларининг ифодаланиши | 174-181 |
| 20. | ХУЖАЕВ М.И. | Туркистонда санъат асрларининг заки валидий томонидан ўрганилиши | 181-184 |
| 21. | АБДУЛЛАЕВ Ш. | Минтақавий ҳамкорлик ва аҳил қўшничилик муносабатлари Марказий Осиё минтақасида барқарор тараққиёт гарови | 185-194 |
| 22. | KARIMOV U. | Formation of the general and professional culture of the teacher as a guarantee of the effectiveness of education | 195-201 |
| 23. | ҚОЛҚАНОВ Н.Т. | Политическое лидерство как субъект современных властных отношений | 202-207 |
| 24. | ШАЛДАРБЕКОВА А.Б.<br>ШАЛДАРБЕКОВА М.Б. | Әл-Фарабидің тәрбие туралы көзқарастары және «мәңгілік ел» ұлттық идеясы аясында ұлттық тәрбие беру мәселесі | 208-217 |
| 25. | ШАКАРОВ Ў. | Марказий Осиё мутафаккирларининг раҳбар ахлоқига доир қарашлари | 218-234 |
| 26. | TURDIYEV B. S. | Konfutsiyning ma'naviy yangishlar to'g'risidagi qarashlari | 234-242 |
| 27. | НИШАНБАЕВ К.Н. | К проблеме классификации тюркоязычных лексических заимствованний в русском языке | 243-250 |
| 28. | ТУРГУНОВА А. Т. | Ўзбекистонда кексаларни қадрлаш азалий қадрият | 250-256 |
| 29. | ТОЙИРОВА Ш. И.<br>ТОЙИРОВА Л. И. | Тилларни ўрганишда психолингвистика сохасининг ўзига хос қонуниятлари | 256-261 |
| 30. | ҚИЛИЧЕВ Р. | Бухоро ҳунармандчилиги | 261-269 |
| 31. | РАХИМОВА Р. | Шарқ ва Ғарб санъати ривожининг ўзига хос хусусиятлари | 270-272 |
| 32. | ОРТИҚОВ О. | Ислом динидаги маънавий – ахлоқий ва гуманистик ғоялар | 273-278 |
| 33. | МИРАХМЕДОВ Ж.М. | Жамиятни миллий-маънавий хавфсизлигига замонаий таҳдидларни намоён булиши ва уни мустаҳкамлаш йўллари | 279-286 |
| 34. | ЮЛДАШЕВА М. Б. | Ёлғизлик феноменини талқин | 286-292 |